

O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGI TAHLILI

ILMIY-TAHLILIY JURNAL
2026-YIL MAXSUS SON

ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК

UZBEKISTAN LAW REVIEW

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 SPECIAL ISSUE

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.SI.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.



MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“O‘zbekiston qonunchiligi tahlili” ilmiy-tahliliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2014-yil 21-iyulda 02-0074-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi si Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:
O. Choriyev

Muharrirlar:
E. Mustafayev, Y. Yarmolik,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova,
X. Yuldasheva, F. Usmonova,
K. Abduvaliyeva, E. Sharipov

Musahhih:
M. Tursunov

Texnik muharrir:
U. Sapayev

Dizayner:
D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: lawreview.uz
E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Nashriyot litsenziyasi
№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2026-yil 26-avgustda bosmaxonaga topshirildi.
Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 13,2.
Adadi: 100. Buyurtma: № 82.

Bosmaxona litsenziyasi
29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY'ATI

BOSH MUHARRIR

S. Gulyamov – Toshkent davlat yuridik universiteti Huquq va texnologiyalar sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir o‘rinbosari

Sh. Xo‘jayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Intellektual mulk huquqi sho‘basi mudiri, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori – mas‘ul muharrir

O. Oqyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

A. Ener – Turkiyaning Anqara Haci Bayram universiteti dotsenti, Energetika nizolari arbitraj markazi bosh kotibi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori

M. Bungenberg – Saarlend universiteti Yevropa instituti direktori, yuridik fanlar doktori

S. Tatar – Turkiyaning Anqara Yildirim Boyazid universiteti professori, yuridik fanlar doktori

J. Peeroo – Sarbonna universiteti professori, “Stone 36” yuridik firmasi advokati, yuridik fanlar doktori

B. Musayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti dekani, yuridik fanlar doktori, professor

Sh. Saydullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq sho‘basi professori, yuridik fanlar nomzodi

D. Habibullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi sho‘basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

S. Bozorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro xususiy huquq sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

I. Bekov – Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq sho‘basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

V. Ergashev – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti direktor o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

Sh. Joldasova – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

O. Xazratqulov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro xususiy huquq sho‘basi mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

D. Suyunova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

D. Maxkamov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti dekani, professor, yuridik fanlar doktori

D. Babadjanova – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi sho‘basi professori v.b., yuridik fanlar doktori

A. Matmurotov – Toshkent davlat yuridik universiteti Sud hokimiyati, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlar sho‘basi mudiri, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

E. Rahmatov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti dekani, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

M. Turdaliyev – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuridik ta‘lim va sud-ekspertiza boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Научно-аналитический журнал «Обзор законодательства Узбекистана» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 21 июля 2014 года с удостоверением № 02-0074.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:

Э. Мустафаев, Е. Ярмолик,
М. Шарилова, Ш. Бекназарова,
Х. Юлдашева, Ф. Усмонова,
К. Абдувалиева, Э. Шарипов

Корректор:

М. Турсунов

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: lawreview.uz

E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Издательская лицензия

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
26.08.2026.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 13,2. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 82.

Лицензия типографии

от 29.11.2023 № 174626

Отпечатано в типографии
Ташкентского государственного
юридического университета.
100047, г. Ташкент,
ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

С. Гулямов – профессор сектора права и технологий Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ

И. Рустамбеков – проректор Ташкентского государственного юридического университета по учебной работе, доктор юридических наук, профессор – заместитель главного редактора

Ш. Хужаев – заведующий сектором права интеллектуальной собственности Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам – ответственный редактор

О. Окюлов – профессор сектора гражданского права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Энэр – доцент Университета Анкары Хаджи Байрам (Турция), заместитель генерального секретаря Арбитражного центра по энергетическим спорам, доктор права

М. Бунгенберг – директор Европейского института Саарского университета, доктор права

С. Татар – профессор Университета Анкары Йылдырым Беязит (Турция), доктор права

Ж. Пироо – профессор Сорбоннского университета, адвокат юридической фирмы Stone 36, доктор права

Б. Мусаев – декан факультета бизнес-права и судебной защиты Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Ш. Сайдуллаев – профессор сектора теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, кандидат юридических наук, профессор

Д. Хабибуллаев – заведующий кафедрой гражданского процессуального и экономического процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

С. Бозоров – профессор сектора международного частного права Ташкентского государственного юридического университета (Registrar's Office), доктор юридических наук

И. Беков – заведующий сектором конституционного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

В. Эргашев – заместитель директора Института законодательства и правовой политики при Президенте Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

Ш. Джолдасова – ведущий научный сотрудник Института проблем законодательства и парламентских исследований при Олий Мажлисе Республики Узбекистан, доктор философии по юридическим наукам

О. Хазраткулов – заведующий сектором международного частного права Ташкентского государственного юридического университета, кандидат юридических наук, профессор

Д. Суюнова – профессор сектора уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Д. Махкамов – декан факультета публичного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Д. Бабаджанова – и.о. профессора сектора гражданского права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Матмуротов – заведующий сектором судебной власти, адвокатуры и правоохранительных органов Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

Э. Рахматов – декан факультета частного права и сравнительного правоведения Ташкентского государственного юридического университета по делам молодёжи и духовно-просветительской работе, доктор философии по юридическим наукам, доцент

М. Турдиалиев – заместитель начальника управления юридического образования и судебной экспертизы Министерства юстиции Республики Узбекистан, доктор юридических наук, доктор философии по юридическим наукам

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Uzbekistan Law Review” scientific and analytical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on July 21, 2014, with certificate number 02-0074.

The journal is included in the list of journals of the Supreme Attestation Commission under Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:
O. Choriev

Editors:
E. Mustafaev, E. Yarmolik,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova,
Kh. Yuldasheva, F. Usmonova,
K. Abduvalieva, E. Sharipov

Proofreader:
M. Tursunov

Technical editor:
U. Sapayev

Designer:
D. Rajapov

Publishing department address:
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: lawreview.uz
E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Publishing license
№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the
Printing house on 26.08.2026.
Paper size: A4.
Cond.p.f: 13,2.
Units: 100. Order: № 82.

Printing house license
№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD
EDITOR-IN-CHIEF

S. Gulyamov – Professor of the Department of Law and Technologies of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

I. Rustambekov – Deputy Rector for Academic Affairs of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor - Deputy Editor-in-Chief

Sh. Khujaev – Head of the Department of Intellectual Property Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law - Executive Editor

O. Okyulov – Professor of the Department of Civil Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Ener – Associate Professor of Ankara Haci Bayram University, Turkey, Deputy Secretary General of the Center for Arbitration of Energy Disputes, Doctor of Law

M. Bungenberg – Director of the European Institute of Saarland University, Doctor of Law

S. Tatar – Professor of Ankara Yıldırım Bayezid University, Turkey, Doctor of Law

J. Peeroo – Professor of the University of Sorbonne, lawyer of the law firm Stone 36, Doctor of Law

B. Musaev – Dean of the Faculty of Business Law and Judicial Protection of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

Sh. Saydullaev – Professor of the Department of Theory of State and Law of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences

D. Habibullaev – Head of the Department of Civil Procedural and Economic Procedural Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

S. Bozorov – Professor of the Department of Private International Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

I. Bekov – Head of the Department of Constitutional Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

V. Ergashev – Deputy Director of the Institute of Legislation and Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

Sh. Joldasova – Chief Research Fellow of the Institute of Legislation Problems and Parliamentary Research under the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

O. Khazratkulov – Head of the Department of Private International Law of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences, Professor

D. Suyunova – Professor of the Department of Criminal Procedure Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

D. Mahkamov – Dean of the Faculty of Public Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

D. Babadjanova – Acting Professor of the Department of Civil Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Matmurotov – Head of the Department of Judiciary, Advocacy and Law Enforcement Agencies of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

E. Rahmatov – Dean of the Faculty of International Law and Comparative Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

M. Turdialiyev – Deputy Head of the Department of Legal Education and Forensic Examination of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 8 **LI ADIK ALEKSANDROVICH**
Moliyaviy sanksiyalar bo'yicha nizolar yuzasidan ma'muriy sud ishlarini yuritish muammolari
- 18 **JURAYEV SHERZOD YULDASHEVICH**
Bandlik sohasidagi ommaviy-huquqiy nizolarni ma'muriy sudlarda ko'rib chiqishning o'ziga xos xususiyatlari
- 27 **G'OZIYEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**
Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va boshqarishning nazariy-huquqiy asoslari
- 34 **AVEZOVA ELEONORA PARAXATOVNA**
O'zbekiston Respublikasi ma'muriy organlari tomonidan ma'muriy ixtiyoriylik (diskretion vakolat)ni amalga oshirish ustidan sud nazorati
- 42 **NAZAROV O'TKIR ERKINOVICH**
Yevropa Ittifoqi davlatlarida ma'muriy tartib-taomillar institutining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 56 **RAHMONOV OTABEK QO'CHQOR O'G'LI**
Korporativ huquq subyektlarini ixtiyoriy usulda qayta tashkil etishning nazariy va amaliy muammolari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 62 **NARZULLAYEV OLIM XOLMAMATOVICH**
Iqlim o'zgarishi sharoitida "yashil" ish o'rinlari va yoshlar ta'limini uyg'unlashtirish: O'zbekiston tajribasi
- 76 **MAMAYUSUPOV OYATBEK A'ZAMJON O'G'LI, JUMASHEV BEXRUZ ALISHEROVICH**
Ekologiyani muhofaza qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati: O'zbekiston va Xitoy tajribasi

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 84 **ZOILBOYEV JAVLON KARIMJON O'G'LI, BERDIQULOVA DIYORA DONIYOR QIZI**
Ijtimoiy tarmoqlarda kiberbulling (kiberzo'ravonlik) va huquqiy javobgarlik

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 93 **IBODULLAYEV SAYIDKOMIL BEKPO'LAT O'G'LI**
Ko'p tomonlamalikdan bir tomonlamalikka: JST huquqiy tizimi inqirozi va uning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy savdoga ta'siri

HUQUQNI SOHALARARO TADQIQ ETISH

- 104 **RAMAZONOV NODIR NORMURODOVICH**
Sofoklning "Antigona" tragediyasida tabiiy va pozitiv huquq o'rtasidagi kurashning badiiy talqini
- 109 **BOZOROVA NASIBA PO'LOTJONOVNA**
Yuridik ta'limda Komil Sindarovning "Qimmatga tushgan xato" qissasini o'qitish

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

- 8 **ЛИ АДИК АЛЕКСАНДРОВИЧ**
Проблемы административного судопроизводства по спорам о финансовых санкциях
- 18 **ЖУРАЕВ ШЕРЗОД ЮЛДАШЕВИЧ**
Особенности рассмотрения публично-правовых споров в сфере занятости в административных судах
- 27 **ГОЗИЕВ КОЗИМБЕК ЖОВЛОНБЕКОВИЧ**
Теоретико-правовые основы регулирования и управления деятельностью высших образовательных организаций
- 34 **АВЕЗОВА ЭЛЕОНОРА ПАРАХАТОВНА**
Судебный контроль за осуществлением административного усмотрения (дискреционного полномочия) административными органами Республики Узбекистан
- 42 **НАЗАРОВ УТКИР ЭРКИНОВИЧ**
Тенденции и перспективы развития института административных процедур в европейских государствах

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

- 56 **РАХМОНОВ ОТАБЕК КУЧКОР УГЛИ**
Теоретические и практические проблемы добровольной реорганизации субъектов корпоративного права

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

- 62 **НАРЗУЛЛАЕВ ОЛИМ ХОЛМАМАТОВИЧ**
Соответствие «зелёных» рабочих мест и образования молодёжи в условиях изменения климата: опыт Узбекистана
- 76 **МАМАЮСУПОВ ОЯТБЕК АЪЗАМЖОН УГЛИ, ЖУМАШЕВ БЕХРУЗ АЛИШЕРОВИЧ**
Деятельность негосударственных некоммерческих организаций в сфере охраны окружающей среды: опыт Узбекистана и Китая

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

- 84 **ЗОИЛБОВЕВ ЖАВЛОН КАРИМЖОН УГЛИ, БЕРДИКУЛОВА ДИЁРА ДОНИЁР КИЗИ**
Кибербуллинг (кибернасилие) в социальных сетях и юридическая ответственность

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

- 93 **ИБОДУЛЛАЕВ САЙИДКОМИЛ БЕКПУЛАТ УГЛИ**
От многосторонности к односторонности: кризис правовой системы ВТО и его последствия для региональной торговли в Центральной Азии

МЕЖОТРАСЛЕВОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПРАВА

- 104 **РАМАЗОНОВ НОДИР НОРМУРОВОВИЧ**
Художественная интерпретация противостояния естественного и позитивного права в трагедии Софокла «Антигона»
- 109 **БОЗОРОВА НАСИБА ПУЛОТЖОНОВНА**
Преподавание повести Комила Синдарова «Жажда мести» в юридическом образовании

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 8 **LI ADIK ALEKSANDROVICH**
Problems of administrative judicial proceedings regarding financial sanctions disputes
- 18 **JURAEV SHERZOD YULDASHEVICH**
Peculiarities of considering public law disputes in the field of employment in administrative courts
- 27 **GOZIEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**
Theoretical and legal foundations of regulation and management of the activities of higher educational institutions
- 34 **AVEZOVA ELEONORA PARAKHATOVNA**
Judicial control over the implementation of administrative discretion (discretionary authority) by the administrative authorities of the Republic of Uzbekistan
- 42 **NAZAROV UTKIR ERKINOVICH**
Trends and prospects for the development of administrative procedures in the countries of the European Union

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 56 **RAKHMONOV OTABEK KUCHKOR UGLI**
Theoretical and practical problems of voluntary reorganization of subjects of corporate law

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 62 **NARZULLAEV OLIM KHOLMAMATOVICH**
Aligning green jobs and youth education in the context of climate change: evidence from Uzbekistan
- 76 **MAMAYUSUPOV OYATBEK AZAMJON UGLI, JUMASHEV BEKHURUZ ALISHEROVICH**
Activities of non-governmental non-profit organizations in environmental protection: the experience of Uzbekistan and China

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

- 84 **ZOILBOEV JAVLON KARIMJON UGLI, BERDIQULOVA DIYORA DONIYOR KIZI**
Cyberbullying (cyber violence) on social media and legal liability

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 93 **IBODULLAEV SAYIDKOMIL BEKPULAT UGLI**
From multilateralism to unilateralism: the crisis of the WTO legal system and its implications for regional trade in Central Asia

INTERDISCIPLINARY STUDY OF LAW

- 104 **RAMAZONOV NODIR NORMURODOVICH**
Artistic interpretation of the struggle between natural and positive law in Sophocles' tragedy "Antigone"
- 109 **BOZOROVA NASIBA PULOTJONOVNA**
Teaching Komil Sindarov's short story "Lust for Revenge" in legal education
-

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.07.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 14.08.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 26.08.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.uzlawrev.3.SI./SNXJ2197>

UDC: 349.6:061.2(045)(575.1)

EKOLOGIYANI MUHOFAZA QILISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING FAOLIYATI: O'ZBEKISTON VA XITOIY TAJRIBASI

Mamayusupov Oyatbek A'zamjon o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ma'muriy va moliya huquqi sho'bası o'qituvchisi

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-6901-7994>

e-mail: oyatbek.mamayusupov@gmail.com

Jumashev Bexruz Alisherovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabasi

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-5006-8997>

e-mail: jumashevbehruz5@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida nodavlat notijorat tashkilotlarining (NNT) o'rni va faoliyati O'zbekiston hamda Xitoy tajribasi misolida qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ekologik NNTlar faoliyatining huquqiy asoslari, ularning ekologik muammolarni hal etish, jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish va fuqarolarning ekologik manfaatlarini himoya qilishdagi ishtiroki o'rganilgan. Xalqaro shartnomalar, O'zbekiston va Xitoy milliy qonunchiligi, statistik ma'lumotlar, so'rovnoma natijalari hamda mahalliy va xorijiy NNTlar faoliyati qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida ekologik NNTlar faoliyatini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan ayrim huquqiy va tashkiliy muammolar aniqlanib, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, mustaqilligi kafolatlarini mustahkamlash hamda atrof-muhitni muhofaza qilishda jamoatchilik ishtiroki samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, NNT, XXR, ekologiyaga qarshi jinoyatlar, "ClientEarth", "Friends of Nature", "China Zero Waste Alliance"

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В СФЕРЕ ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ

Мамаюсупов Оятбек Аъзамжон угли,

преподаватель сектора административного и финансового права
Ташкентского государственного юридического университета

Жумашев Бехруз Алишерович,

студент факультета международного права и сравнительного правоведения
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье на примере опыта Узбекистана и Китая проведён сравнительно-правовой анализ роли и деятельности негосударственных некоммерческих организаций (ННО) в сфере охраны окружающей среды. Исследованы правовые основы деятельности экологических ННО, их участие в решении экологических проблем, осуществлении общественного экологического контроля и защите экологических интересов граждан. Проведён сравнительный анализ международных договоров, национального законодательства Узбекистана и Китая, статистических данных, результатов опроса, а также деятельности отечественных и зарубежных ННО. По результатам исследования выявлены отдельные правовые и организационные проблемы, препятствующие развитию экологических ННО, и разработаны научно-практические предложения по поддержке их деятельности, укреплению гарантий независимости и повышению эффективности участия общественности в охране окружающей среды.

Ключевые слова: экология, ННО, КНР, экологические преступления, ClientEarth, Friends of Nature, China Zero Waste Alliance

ACTIVITIES OF NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATIONS IN ENVIRONMENTAL PROTECTION: THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN AND CHINA

Mamayusupov Oyatbek Azamjon ugli,

Lecturer of the Department of Administrative and Financial Law,
Tashkent State University of Law

Jumashev Bekhruz Alisherovich,

Student of the Faculty of International Law and Comparative Law
at Tashkent State University of Law

Abstract. This article provides a comparative legal analysis of the role and activities of non-governmental non-profit organizations (NGOs) in the field of environmental protection, using the experience of Uzbekistan and China as examples. The study examines the legal foundations of environmental NGO activities, their participation in solving environmental problems, implementing public environmental control, and protecting the environmental interests of citizens. A comparative analysis was conducted on international treaties, national legislation of Uzbekistan and China, statistical data, survey results, and the activities of local and foreign NGOs. As a result of the study, certain legal and organizational problems hindering the development of environmental NGOs were identified, and scientific and practical proposals were developed aimed at supporting their activities, strengthening guarantees of their independence, and increasing the effectiveness of public participation in environmental protection.

Keywords: ecology, NGO, PRC, environmental crimes, ClientEarth, Friends of Nature, China Zero Waste Alliance

Kirish

Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) tabiatni muhofaza qilishda eng samarali usullarni qo'llovchi institutsional subyektlar sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki NNTlar muhim vositachi sifatida maydonga chiqib, fuqarolar va hukumat o'rtasidagi an'anaviy munosabatlar shaklini o'zgartirmoqda (Rigolon & Gibson, 2021). Muayyan mamlakatlardagi ekologik muhit muvozanatini saqlash hamda biologik xilma-xillikni inobatga olgan holda, markaziy hukumatga nisbatan mahalliy jamoatchilik asosidagi "yashil" nodavlat notijorat tashkilotlari (YNNT) atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ma'lumotlarni har tomonlama va to'liq yig'ish imkoniyatiga ega (Ma, 2025). Atrof-muhit o'zgarishlariga moslashish davrida NNT kabi subyektlar ekologiya siyosatini shakllantirish va tabiatni muhofaza qilishda tobora muhimroq rol o'ynamoqda (Youssef, 2024).

Bugungi kunda ekologik xavfsizlikni ta'minlashda va atrof-muhitni kelajak avlodlarga sog'lom holatda yetkazishda salmoqli hissa qo'shayotgan YNNTlar faoliyatini muayyan davlatlarda joriy etishning o'zida qator muammolar yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga, ularning faoliyati jarayonida tashkiliy-texnik va moliyaviy qiyinchiliklar mavjudligi ham sir emas.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlarda olimlar tomonidan masalaning mohiyati bilan bog'liq fundamental asoslar keltirilgan. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlarda NNTlarning o'rni, ularning faoliyatini davlatning ichki mexanizmlari orqali rag'batlantirish, shuningdek, imtiyozlar berish masalalari hanuzgacha bo'shliq bo'lib qolmoqda. Ushbu bo'shliqni to'ldirish maqsadida muallif tomonidan XXR (Xitoy) mexanizmi tahlil qilinadi. Maqolada ilgari surilgan yondashuvlar va erishilgan tahlil natijalari nafaqat ekologiyasi muhofazaga muhtoj bo'lgan mamlakatlarda, balki Germaniya va Xitoy kabi ekologik siyosati rivojlangan davlatlarda ham qo'llanishi mumkinligi ishning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Maqolada xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilik hujjatlarining qiyosiy tahlili asosida Xavfli chiqindilarning transchegaraviy tashilishini nazorat qilish va ularni yo'q qilish to'g'risidagi Bazil konvensiyasi hamda XXR va O'zbekiston qonunchiligi qiyosiy-huquqiy jihatdan o'rganiladi.

Tadqiqot doirasida ekologiya huquqi sohasidagi olimlarning qarashlari tahlil qilinib, magistrlar o'rtasida sotsiologik so'rovnomalar o'tkaziladi. Statistik ma'lumotlar UNEP (BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi) rasmiy saytining 2025-yilgi hisoboti asosida tahlil qilinadi va ushbu tahlillarning markazida mahalliy hamda xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati turadi (United Nations Environment Programme, 2026).

Asosiy qism

Maqolada kutilgan natijalarga erishish uchun hal etilishi va tahlil qilinishi lozim bo'lgan masalalarni quyidagicha guruhlab olish mumkin:

1. Ekologik muhofazada NNTlar faoliyatining ahamiyati: O'zbekiston va XXR tajribasi

Shuni ta'kidlash lozimki, oxirgi yillarda O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi bilan bir qatorda ekologik muammolar ham ko'payib bormoqda. Masalan, "World Air Quality Index" ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi 2018–2024-yillar oralig'ida havoning ifloslanish darajasi bo'yicha 19-o'rinni egallagan bo'lsa, 2026-yilga kelib 8-o'ringa ko'tarilgan (IQAir, n.d.). Mazkur holat o'ta salbiy ko'rsatkich hisoblanadi. Boshqa tomondan, masalaning davlat tomonidan tartibga solinishiga e'tibor qaratsak, hozirgi kunda Iqlim o'zgarishi bo'yicha milliy qo'mita ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida vakolatli subyekt sifatida davlat siyosatini amalga oshirib kelmoqda.

Biroq buning o'zi yetarli emas. Z. Mohammadi va S. Jafariylar ta'kidlaganidek, ekologiya sohasida davlat siyosatini olib borishda ekologik NNTlar tadqiqotlar va targ'ibot ishlarini olib borish, shuningdek, texnik ekspertizalar o'tkazishda muhim rol o'ynaydi (Mohammadi & Jafari, 2021). Bunga qo'shimcha ravishda J. Makkormik qayd etadiki, hukumatdan mustaqil bo'lgan va unga bo'ysunmaydigan NNTlar ekologik muammolarni hal etishda turli usullardan foydalanadi. Jumladan, ular tadqiqotlar o'tkazadi, xalqaro va transmilliy tashkilotlarga zarur ta'sir ko'rsatadi, atrof-muhitni asrash uchun mablag'lar yig'ib, ularni ekologik tadbirlarga yo'naltiradi, hukumat idoralari, sanoat korxonalari va shaharsozlik loyihalari ustidan jamoatchilik monitoringini amalga oshiradi hamda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlaydi (McCormick, 2023). Masalan, 2025-yil oktabr oyida Toshkent shahri Yakkasaroy tumani hokimligi tomonidan 200 tup archa daraxtining noqonuniy kesilishi holati aynan jamoatchilik e'tibori va nazorati tufayli keng muhokamaga sabab bo'ldi (Kun.uz, 2025).

2026-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston hududida 2025-yil davomida 2 328 mingta daraxt va butalar noqonuniy ravishda kesilgan (Gazeta.uz, 2026). Ushbu ma'lumot mustaqil

internet-nashri tomonidan berilgan bo'lsa-da, uning faktik tomoniga e'tibor qaratilsa, manbalarning asosli va to'g'ri ekanini ko'rish mumkin. Eng e'tiborlisi shundaki, hozirda O'zbekistonda daraxtlarni kesishga moratoriy joriy etilgani e'tiborga olinsa, bu haqiqatan ham jiddiy muammo hisoblanadi. Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining vakolat va vazifalari to'liq bajarilmayotgani fonida bu kabi holatlarning takrorlanishi uchun zamin yaratilmoqda. Bizningcha, bunday vaziyatda xo'jalik yurituvchi subyektlar va jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi ekologik NNTlar faoliyatiga keng imkoniyatlar berish lozim.

Hozirda ekologiya sohasida bir nechta NNTlar faoliyat yuritmoqda. Ular safiga Toshkent shahrida joylashgan "Iqlim o'zgarishi bo'yicha yoshlar hamjamiyati", "O'zbekiston ekologik harakati" hamda "Ekosan" tashkilotlarini misol qilib keltirish mumkin. "Iqlim o'zgarishi bo'yicha yoshlar hamjamiyati" o'z faoliyati bilan Markaziy Osiyo va Turkiy davlatlarda atrof-muhitni muhofaza qilishda faol ishtirok etib kelmoqda. Uning tarkibida 13 nafar ekspert va 10 152 nafar ekofaol mavjud (Youthcan, 2017). "Ekosan" esa nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyat olib boruvchi tashkilot hisoblanadi.

Yuqoridagi statistik ma'lumotlar va mavjud NNTlar sonidan kelib chiqib aytish mumkinki, rivojlanayotgan O'zbekiston uchun ekologik muammolarning oldini olish o'ta muhim va bu jarayonda mavjud ekologik NNTlar soni yetarli emas. Shu sababli ularning safini kengaytirish, xorijiy ekologik NNTlarni jalb etish hamda ularni qo'llab-quvvatlash uchun imtiyoz va imkoniyatlar yaratish, ya'ni jamoatchilik nazorati institutini rivojlantirish talab etilmoqda.

Ekologiya sohasida NNTlar faoliyati bilan bog'liq ilg'or tajribalardan biri Xitoy Xalq Respublikasiga (XXR) to'g'ri keladi. XXRda NNTlarni tashkil etish bo'yicha harakatlar 1990-yillarda boshlangan bo'lib, ushbu davrda ijtimoiy tengsizlik va ekologik muammolarning tan olinishi hamda ularni bartaraf etish uchun yangi fuqarolik jamiyati institutlarini tuzish davlat tomonidan rag'batlantirilgan (Liang et al., 2025). I. Masharipov ta'kidlaganidek, O'zbekistonda ham davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash borasida imkoniyatlar kengaytirilib, ekologik va boshqa NNTlarga nisbatan bir qator imtiyozlar berilgan (Batirovich, 2024). Shuni aytish joizki, XXR va O'zbekistonda NNTlar faoliyatini kengaytirish va ularga imtiyozlar berish jarayonlari boshlangani orasidagi vaqt farqi taxminan 14 yilni tashkil etadi.

XXR hududida ekologik NNTlar faoliyatining rivojlanishiga bir nechta omillar ta'sir ko'rsatadi. Muallifning fikricha, ular orasida eng asosiysi – mamlakatning bir qator xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilgani va ularga a'zo bo'lganidir. Masalan, XXR 1991-yilda Xavfli chiqindilarning transchegaraviy tashilishini nazorat qilish va ularni yo'q qilish to'g'risidagi (*Basel Convention on the Control of Transboundary Movements of Hazardous Wastes and Their Disposal*) Bazel konvensiyasiga a'zo bo'lgan. Ushbu konvensiya chiqindilarni boshqarishni tartibga soluvchi yagona universal hujjat hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi zaharli chiqindilarning transchegaraviy harakatini tartibga solish orqali inson salomatligi va atrof-muhitga yetkaziladigan zararni maksimal darajada kamaytirishdan iborat (Matemilola & Salami, 2023). Ushbu Konvensiyaning muhim jihati shundaki, u 15- va 16-moddalarga muvofiq, milliy yoki xalqaro miqyosdagi ekologik NNTlarga xalqaro anjumanlarda ishtirok etish hamda tegishli hisobotlarni taqdim etish huquqini beradi (United Nations, 1992).

2024-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston hududidan 45 million tonnadan ortiq chiqindi olib chiqib ketilgan (UzDaily, 2025). Bundan tashqari, ushbu sohada ochiqlik va shaffoflikni yanada oshirish, shuningdek, mamlakatda ekologik NNTlarning o'rnini mustahkamlash va ularga XXR tajribasidagi kabi keng imkoniyat hamda imtiyozlar yaratish uchun O'zbekiston ushbu konvensiyani ratifikatsiya qilishi maqsadga muvofiqdir.

Ta’kidlab o’tish lozimki, XXR 2017-yilda qabul qilingan “Xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining Xitoy materik hududidagi faoliyatini boshqarish to’g’risida”gi Qonun orqali xalqaro NNTlarning mamlakat hududida faoliyat ko’rsatishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi. Ushbu Qonun umumiy xorijiy NNTlarga bag’ishlangan bo’lsa-da, uning 3-moddasida ekologik NNTlar alohida e’tirof etilgan bo’lib, ular Qonunning IV bobida nazarda tutilgan imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega. Xususan, XXR ekologik NNTlarning qonuniy faoliyatini qo’llab-quvvatlash va ularni muhofaza qilish majburiyatini (33-modda), xorijiy NNTlarga siyosiy-huquqiy maslahatlar va yo’riqnomalar berishni (35-modda), ularni soliq va boshqa to’lovlardan ozod qilishni yoki imtiyozlar taqdim etishni (36-modda), shuningdek, yillik tekshiruvlar uchun yig’im undirilmasligini (37-modda) mustahkamlab qo’ygan (China Law Translate, 2016).

Ushbu Qonunning qabul qilinishi “ClientEarth” nomli NNT faoliyati bilan bevosita bog’liq. Tashkilotning rasmiy saytidagi ma’lumotlarga ko’ra, ular XXRda 2016-yildan buyon faoliyat ko’rsatib kelmoqda. Tashkilot 2017-yilda rasmiy ro’yxatdan o’tgan va XXRda ekologiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni yanada mukammallashtirishga (yuqoridagi Qonun bunga misoldir), prokuror va sudyalarning malakasini oshirishga hamda mahalliy NNTlarni tayyorlashga katta hissa qo’shgan (ClientEarth, 2007a).

N. Zausmikat, Y. Klabishlarning ta’kidlashicha, ushbu hujjatning qabul qilinishi Xitoy va boshqa davlatlar o’rtasidagi fuqarolik jamiyati institut bo’yicha tajriba almashinuvini yangi huquqiy bosqichga olib chiqdi (Sausmikat & Klabisch, 2017). Masalan, o’z faoliyatini ushbu Qonunga tayangan holda olib boruvchi “ClientEarth” shu kunga qadar 18 ta NNTni qo’llab-quvvatladi, shuningdek, 80 mingdan ortiq ilgari ishlovga olinmagan ekologik keyslar prokurorlar tomonidan ko’rib chiqilib, o’z yechimini topdi (ClientEarth, 2007b).

O’zbekistonda aynan NNT faoliyatiga bag’ishlangan normativ-huquqiy hujjatlar mavjud bo’lib, ular orasida eng asosiysi “Nodavlat notijorat tashkilotlari to’g’risida”gi Qonun hisoblanadi. Biroq milliy va xorijiy ekologik NNTlar faoliyatini tartibga soluvchi normalar kodifikatsiya qilinmagan, ularga beriladigan imtiyozlar, daxlsizlik va faoliyatini qo’llab-quvvatlash tartibi ochiqlicha qolmoqda. Shu sababli O’zbekiston XXR tajribasiga tayangan holda “ClientEarth” kabi nufuzli nodavlat notijorat tashkilotlariga o’z hududida faoliyat yuritishiga sharoit yaratsa, bu XXR so’nggi yillarda erishgan natijalarga – ekologik NNTlarni qo’llab-quvvatlovchi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, milliy va xorijiy NNTlarga davlat tomonidan monitoring olib borishga ko’maklashish, ularga nisbatan zarur imtiyozlarni belgilash va jamoatchilik nazoratini rivojlantirishga xizmat qiladi.

II. Ekologik xavfsizlikni ta’minlashdagi mavjud muammolar, taklif va mulohazalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish

Dunyo bo’ylab ekologik muammolari mavjud bo’lmagan mamlakatning o’zi yo’q va ular sirasiga O’zbekiston ham kirishi tabiiy holdir. D. Urakovning ta’kidlashicha, O’zbekiston hududlari hozirda quyidagi muammolarga duch kelmoqda: atmosfera havosining ifloslanishi; qattiq, xususan, zaharli sanoat chiqindilarining to’planib borishi; suvlarning ifloslanishi va chuchuk suv tanqisligi; aholini toza ichimlik suvi bilan yetarli darajada ta’minlash muammosi; cho’llanish va qurib borish jarayonlari; tuproqning sho’rlanishi va eroziyasi; turli biologik majmualarning qisqarishi hamda ularning biologik mahsuldorligi pasayishi; oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bilan bog’liq muammolar (Urakov, 2023).

Mazkur muammolar tizimli va o’zaro zanjir kabi chambarchas bog’liq bo’lib, ularning ko’pligi masalaning naqadar keng ko’lamli ekanini ko’rsatadi. Masalalardan birining oqilona hal etilishi, o’z navbatida, keyingi muammolarning yechimini yengillashtirishga xizmat qiladi.

O. Narzullayev va boshqalarning (2025) ta'kidlashicha, O'zbekistondagi asosiy muammolardan biri – qonunchilik normalari va ularning amaldagi ijrosi o'rtasida tafovut mavjudligidir. Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilishning eng samarali usullaridan biri sifatida qonunchilik normalarini amaliyotga tatbiq etishning aniq mexanizmlarini joriy qilish va qonun hujjatlarini tizimlashtirish zarurligi alohida ko'rsatib o'tiladi. Birinchi navbatda atmosfera havosining ifloslanishi masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, oxirgi vaqtlarda O'zbekiston poytaxti Toshkent shahri havoning ifloslanish darajasi bo'yicha dunyodagi eng ifloslangan 10 ta shahar qatoridan joy olmoqda, noyabr-dekabr oylarida esa Toshkent 1-o'ringa chiqdi (IQAir, n.d.).

Tadqiqotlarga ko'ra, ushbu muammolarning kelib chiqishiga poytaxtda yashil hududlarning kamligi, transport vositalari sonining keskin ortishi va issiqxonalardan zaharli gazlarning chiqarilishi asosiy sabab bo'lmoqda (Shakirova & Dehqonov, 2025). Yerlarning sho'rlanishi muammosiga to'xtaladigan bo'lsak, D. Urakov o'z tadqiqotlarida sug'oriladigan yerlarning 46,7 foizi sho'rlanganini, shundan 30,9 foizi kuchsiz, 13,3 foizi o'rtacha va 2,5 foizi kuchli sho'rlanganini ta'kidlaydi (Urakov, 2023). Daraxtlarning noqonuniy kesilishi va tadbirkorlar tomonidan issiqxonalarni isitishda plastik, rezina, ko'mir kabi manbalarni yoqish holatlarining oldini olish, yerlarning sho'rlanishiga qarshi kurashish, chuchuk suv resurslarining isrof qilinishini kamaytirish va ularni tejashda NNTlarning roli nihoyatda kattadir (McCormick, 2023).

Ushbu mavjud muammolarni hal etish mexanizmlari qonunchilikda ham, amaliyotda ham mavjud, biroq ular har doim ham kutilgan samarani bermayapti. Xususan, O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar (o'rmon yerlaridan foydalanish qoidalarini va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar rejimini buzish va b.) soni 499 tani, "Yer, yerosti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish", "Atrof-muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralari ko'rmaslik", "Atrof-muhitni ifloslantirish" kabi qilmishlar bo'yicha jami 198 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Alohida ta'kidlash joizki, "Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish" moddasi bo'yicha jinoyat ishlari soni 0 tani tashkil etadi (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2020). Bu holat davlat organlari mamlakatdagi siyosiy-ekologik nazoratni to'liq ta'minlashga qamrovi yetmayotganidan dalolat beradi. Ushbu mexanizmga NNTlarning faol jalb etilishi yuqorida qayd etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyat ishlarini aniqlash hamda ularning sudda ko'rib chiqilishini yengillashtirishga xizmat qiladi.

Bu borada XJR tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, Xitoy o'z hududidagi NNTlarga alohida e'tibor qaratib, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlamogda. Masalan, Xitoyda joylashgan "Friends of Nature" NNT ma'lumotlariga ko'ra, tashkilot 2024-yil holatiga ko'ra ekologik muammolarga oid 64 ta ish bo'yicha sudga da'vo arizasi kiritgan bo'lib, ularning 57 tasi sud tomonidan ish yuritishga qabul qilingan va 47 tasi muvaffaqiyatli yakunlangan (Friends of Nature, 1993). Ushbu ishlar orasida suv, yer, tuproq va hayvonot dunyosini himoya qilishga oid da'volar mavjud.

Sanoat va issiqxona xo'jaliklaridagi noqonuniy faoliyatga chek qo'yishda esa Xitoydagi "China Zero Waste Alliance" tashkilotining roli salmoqlidir. Ushbu tashkilot 2011-yilda tuzilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi chiqindilar hajmini atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda kamaytirish hamda davlatning chiqindilarni yoqish ("waste incineration") siyosatini cheklashdan iborat (Lingfeiqi, 2013). Mohiyatan u NNT hisoblanmaydi, chunki ayrim manbalarga ko'ra, tashkilot NNT sifatida davlat ro'yxatidan o'ta olmogach, tijorat korxonasi shaklida tashkil etilgan. Shunga qaramay, uning shafeligida 64 ta ekologik NNT va 6 ta kompaniya birlashgan bo'lib, ular bugungi kunda keng ko'lamda faoliyat yuritmoqda (Lu & Steinhardt, 2022).

Yuqorida Xitoyning so'nggi o'n yillikda ekologik holatni yaxshilash borasida amalga oshirgan chora-tadbirlari tahlil qilindi. Ushbu tahlillar asosida Xitoyda ekologiyani asrab-avaylashdagi eng samarali omil bu – NTTlarning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi muhim roli va o'rni davlat tomonidan e'tirof etilgani, deyish mumkin. Ikkinchidan, Xitoy ekologiyani himoya qilishda Yevropa mamlakatlari bilan unumli muloqot o'rnatib, u yerda tashkil etilgan NTTlarning o'z hududida faoliyat yuritishini tan oldi. Uchinchidan, Xitoy NTTlarni tashkil etish va ro'yxatdan o'tkazish tizimini soddalashtirdi hamda ularga taqdim etiladigan imtiyozlar ko'lamini aniq belgilab berdi. To'rtinchidan, Xitoy davlat organlari qonunlar ijrosini ta'minlashda va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda NTTlarning imkoniyatlaridan foydalanishdan cheklanmadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, BMT tomonidan tasdiqlangan Barqaror rivojlanish maqsadlari va prinsiplarini ta'minlashda NTTlarning o'rni nihoyatda salmoqlidir. Mazkur tajribaning samaradorligini XXR misolida ham ko'rish mumkin. Muallif Xitoy tajribasini atroflicha o'rganib chiqib, O'zbekiston Respublikasi uchun quyidagi takliflarni ilgari suradi:

Birinchidan, davlat tomonidan NTTlarning o'rni va faoliyat erkinligi amalda to'liq ta'minlanishi lozim bo'lib, ularning ishini "Davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari sherikligi" prinsipi asosida tashkil etish tavsiya etiladi. Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi O'zbekiston davlat boshqaruvi organlari hamda ekologik NTTlar o'rtasidagi o'zaro hisobdorlik va hamkorlikni oshiradi, natijada ekologik jinoyatlarning oldini olish ko'rsatkichlari sezilarli darajada ortadi.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi atrof-muhit muhofazasini samarali ta'minlash maqsadida Yevropaning "ClientEarth" kabi nufuzli NTTlari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishi hamda ularning mamlakat hududida o'z faoliyatini boshlashiga ko'maklashishi zarur. Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, "ClientEarth" XXRda o'z faoliyatini boshlaganidan beri ekologiya sohasidagi davlat xizmatchilari, jumladan, sudya va prokurorlarning kasbiy malakasini oshirishga, qolaversa, mamlakatda xorijiy va milliy NTTlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yagona qonunchilik bazasining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Uchinchidan, O'zbekiston bevosita ekologik NTTlarning faoliyati va ularga beriladigan imtiyozlarni o'z ichida mujassam etgan maxsus Qonun qabul qilishi lozim. Ushbu Qonun loyihasini ishlab chiqishda "ClientEarth" kabi tashkilotlarning ekspertiza ko'magiga tayanish hamda Xitoyning "Xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining Xitoy materik hududidagi faoliyatini boshqarish to'g'risida"gi Qonunidan namuna sifatida foydalanish tavsiya etiladi. Xususan, yangi Qonun loyihasida davlat ekologik NTTlarni soliq va boshqa majburiy to'lovlardan ozod etish masalasini alohida nazarda tutishi kerak. Ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlash va jamoatchilik nazoratini rivojlantirish yo'lidagi yana bir muhim qadam bo'ladi.

REFERENCES

- Batirovich, M. I. (2024). Factors of development processes of socio-political bases of NGOs in New Uzbekistan. *International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research*, 13(1), 16–21.
- China Law Translate. (2016). *Foreign NGO law*. <https://www.chinalawtranslate.com/en/2016-foreign-ngo-law/>

- ClientEarth. (2007a). *Where we work: Asia and the Pacific*. <https://www.clientearth.org/where-we-work/asia-the-pacific/>
- ClientEarth. (2007b). *Where we work: China*. <https://www.clientearth.org/where-we-work/china/>
- Friends of Nature. (1993). <https://www.fon.org.cn/en>
- Gazeta.uz. (2026, January 7). *Toshkentda 2025-yilda qancha daraxt kesilgani va ko'chirilgani ma'lum qilindi* [It was announced how many trees were cut down and transplanted in Tashkent in 2025]. <https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/07/trees/>
- IQAir. (n.d.). *World air quality ranking*. <https://www.iqair.com/world-air-quality-ranking>
- Kun.uz. (2025, October 27). *Yakkasaroyda kesilgan daraxtlar: Hodisa tafsilotlari*. <https://kun.uz/news/2025/10/27/yakkasaroyda-kesilgan-daraxtlar-hodisa-tafsilotlari>
- Liang, L., Day, J., & Han, S. S. (2025). The roles of non-governmental organizations in the co-production of urban greenspaces in Beijing. *Urban Forestry & Urban Greening*, 129002.
- Lingfeiqi. (2013). *About us*. <https://www.lingfeiqi.org/aboutus>
- Lu, J., & Steinhardt, H. C. (2022). Alliance building among environmental nongovernmental organizations in China: The emergence and evolution of the zero waste alliance. *Modern China*, 48(1), 105–133.
- Ma, Z. (2025). Towards environmental deliberative democracy in China. *Humanities and Social Sciences Communications*, 12(1), 1–11.
- Matemilola, S., & Salami, H. A. (2023). *Basel Declaration on the control of hazardous wastes (Basel Convention)*. In *Encyclopedia of sustainable management* (pp. 239–242). Springer International Publ.
- McCormick, J. (2023). *The role of environmental NGOs in international regimes*. In *The global environment* (pp. 52–71). Routledge.
- Mohammadi, Z., & Jafari, S. M. (2021). Regulatory principles on food nanoparticles legislated by Asian and Oceanian countries. In S. M. Jafari (Ed.), *Safety and regulatory issues of nanoencapsulated food ingredients* (pp. 201–238). Academic Press. <https://doi.org/10.1016/B978-0-12-815725-1.00006-9>
- Narzullayev, O., Mukasheva, A., & Dilafruz, S. (2025). Ensuring legal protection of biological diversity regulations for safeguarding ecosystem. *Journal of Human Rights, Culture and Legal System*, 5(2), 531–553.
- Rigolon, A., & Gibson, S. (2021). The role of non-governmental organizations in achieving environmental justice for green and blue spaces. *Landscape and Urban Planning*, 205, 103970.
- Sausmikat, N., & Klabisch, J. (2017). *2016 EU-China Twinning: Partnerships between European and Chinese NGOs: Social and environmental justice and climate change*.
- Shakirova, N. A., & Dehqonov, D. H. (2025). Toshkent shahri havo ifloslanishining omillari va statistik tahlili. *Education News: Research in the 21st Century*, 4(40), 760–766.
- Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2020). *Public portal: Conflict cases*. <https://public.sud.uz/report/CONFLICT>
- United Nations Environment Programme. (2026, February). *Our planet. Our purpose: UNEP annual report 2025*. <https://wedocs.unep.org/handle/20.500.11822/49244>
- United Nations. (1992). *Basel Convention on the control of transboundary movements of hazardous wastes and their disposal*. https://treaties.un.org/doc/treaties/1992/05/19920505%2012-51%20pm/ch_xxvii_03p.pdf
- Urakov, D. (2023). Ecological and environmental policy of Uzbekistan: Threats, problems and solutions. *E3S Web of Conferences*, 458, 04015.
- Uzdaily. (2025). *O'zbekistonda 2024-yilda 45 million kubometrda ortiq chiqindi olib chiqildi*. <https://www.uzdaily.uz/uz/ozbekistonda-2024-yilda-45-million-kubometrda-ortiq-chiqindi-olib-chiqildi/>
- Youssef, A. B. (2024). The role of NGOs in climate policies: The case of Tunisia. *Journal of Economic Behavior & Organization*, 220, 388–401.
- Youthcan. (2017). *Youthcan Uzbekistan*. <https://youthcan.uz/oz>

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIY JURNAL
2026-YIL MAXSUS SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 SPECIAL ISSUE

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.SI.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.